

HARBIY BUYRUQ SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail : Desperion90@gmail.com

Annotatsiya. Harbiy diskurs institutsional muloqot shakli sifatida o'ziga xos lingvistik, kommunikativ va sotsiolingvistik xususiyatlarga ega. Harbiy muhitda muloqotning asosiy shakllaridan biri bo'lgan buyruqlar harbiy tartib-intizomni ta'minlash, bo'ysunish munosabatlarini shakllantirish va tezkorlikni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada harbiy buyruqlarning strukturaviy, pragmatik va sotsiolingvistik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: harbiy buyruq, institutsional muloqot, kommunikativ birlik, sotsiolingvistik xususiyat, harbiy tartib-intizom, bo'ysunish munosabatlari, tezkorlik.

Harbiy diskurs har qanday davlatning qurolli kuchlarida ijtimoiy institut sifatida shakllangan til tizimi bo'lib, u qat'iy struktura, aniq maqsadga yo'naltirilganlik va standartlashtirilgan ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Xususan, buyruq gaplar harbiy kommunikatsiyaning markaziy komponenti sifatida, bu diskurs doirasida yuqori funksional yuklamaga ega. Ular nafaqat grammatik birlik, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada harbiy buyruqlarning lingvistik qurilishi, sotsiolingvistik funksiyalari va ijtimoiy kommunikatsiyadagi o'rni tahlil qilinadi.

Harbiy diskursda buyruq — bu boshliq (komandir) tomonidan berilgan va bo'ysunuvchi shaxs tomonidan majburiy bajarilishi lozim bo'lgan rasmiy ko'rsatma bo'lib, u harbiy intizom va iyerarxiyani ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Bu ko'rsatmalar og'zaki yoki yozma shaklda taqdim etilishi mumkin, biroq har ikkala shaklda ham ular qat'iylik, aniqlik, qisqalik va muayyan adresatga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi. Buyruqlar harbiy boshqaruv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularni to'g'ri ifodalash harakatlarning muvofiqligini va muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Harbiy buyruqlar sintaktik, semantik, pragmatik, stilistik va diskursiv xususiyatlari bilan ajralib turadi. Sintaktik jihatdan buyruq gaplar odatda imperativ fe'l shaklida ifodalanadi. Egasi tushirilgan yoki egasiz gaplar ko'rinishida ishlatilishi ularning qisqalik va tez qabul qilinishini ta'minlaydi. Masalan: "Oldinga yur!, To'xta!, Zudlik bilan yetkaz!" kabi gaplar qisqa, lekin aniq ifodalangan harakatni bildiradi.

Semantik nuqtayi nazardan buyruqlar ma'lum bir vazifani bajarishga qaratilgan bo'lib, ular harakat va natijani o'z ichiga qamrab oladi. Harbiy diskursdagi buyruq gaplar voqelikning bevosita o'zgarishiga sabab bo'luvchi lingvistik birliklardir. Ular kontekstga bog'langan va ko'pincha deiktik elementlar (bu yerda, hozir, shu zahoti) bilan bog'liq holda ishlatiladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan buyruq gaplar direktiv nutq akti sifatida qaraladi. Ularning asosiy vazifasi — adresatni harakatga undash, ya'ni kommunikativ ta'sir o'tkazishdir. Harbiy sohada bu funksional yuklama ikki tomonlama ijtimoiy munosabat — buyuruvchi va bo'ysunuvchi o'rtasidagi kuch aloqasini ifodalaydi.

Harbiy buyruqlar stilistik jihatdan rasmiy-idoraviy uslubiga mansub bo'lib, quyidagi stilistik mezonlar bilan ajralib turadi: a) hissiy neytrallik; b) qoliplilik (takrorlanuvchi strukturaviy modellar); v) terminlarning faol qo'llanilishi; g) emotsional ifodalarning cheklanganligi.

Harbiy buyruqlarning diskursiv xususiyatlariga buyruq gaplar harbiy diskursda maxsus janrni tashkil etadi. Ular orqali ijtimoiy rollar, kuch munosabatlari va harbiy iyerarxik strukturalar ifodalanadi. Harbiy janrlar (buyruqlar, farmoyishlar, nizomlar) doirasida ushbu gaplar asosiy kommunikativ mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Buyruq gaplar harbiy sotsiolingvistik makonda o'zaro kuchli kontekstual va madaniy aloqalarga ega. Ular nafaqat strukturaviy, balki ijtimoiy rollar va muomala normalari asosida shakllanadi. Harbiy sohada til foydalanish an'anaviy va institutsional me'yorlarga bo'ysunadi. Buyruqlarning mazmuni, ifoda shakli va bajarilish uslubi ko'pincha milliy madaniyat, ijtimoiy qadriyatlar va harbiy an'analarga bog'liq bo'ladi. Sotsiolingvistik yondashuvda, harbiy buyruqlar kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy maqomiga qarab farqlanadi. Yuqori lavozimli zobitlar va oddiy harbiy xizmatchilar o'rtasida almashiladigan buyruqlar, iyerarxik tuzilmani aks ettirgan holda, kuch munosabatlarini mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda tilning kuch vositasi sifatida ishlatilishi, harbiy madaniyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Harbiy diskurs – bu harbiy ijtimoiy institut doirasida shakllanuvchi va ma'lum ijtimoiy rollar, maqomlar hamda kommunikativ vazifalar asosida tashkil topadigan til hodisasidir. Uning sotsiolingvistik belgilari kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, harbiy tuzilmadagi iyerarxik holati, institutga xos madaniy me'yorlar va rasmiy kommunikatsiya an'analarga asoslanadi. Quyida harbiy diskursga xos asosiy sotsiolingvistik belgilar yoritiladi:

1) Iyerarxik tuzilma va tilning normativligi. Harbiy diskursda til ishlatilishi qat'iy iyerarxik asosda tartibga solinadi. Yuqori va quyi lavozimdagi shaxslar o'rtasidagi tilshunoslik jihatidan farqlanuvchi muloqot formasi mavjud: a) Yuqoridan pastga: buyruq, ko'rsatma, farmoyish shaklida; b) Pastdan yuqoriga: hisobot, axborot, iltimos shaklida.

Bu iyerarxik asimmetriya til vositalarining tanlanishiga bevosita ta'sir qiladi: og'zaki va yozma nutqda soddalashtirilgan imperativ formalar yuqori lavozimli shaxslar nutqiga xos bo'lsa, rasmiy, murakkab va ehtiyotkor ifodalar quyi maqomli shaxslarga xosdir.

2) Kommunikativ rollarning aniqligi. Harbiy muloqotda ishtirokchilarning rollari (buyuruvchi – bajaruvchi, rahbar – bo'ysunuvchi) aniq belgilangan. Bu rollar har bir nutq aktining maqsadini va shaklini belgilab beradi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, bu har bir subyektning tilni qanday tanlashi va ishlatishini chegaralaydi: a) Buyruqlar – bajarilishi majburiy bo'lgan gaplar sifatida ko'riladi; b) Boshqa nutq aktlari (iltimos, maslahat, mulohaza) cheklangan yoki kam qo'llaniladi.

3) Institutsional til me'yorlari va standartlari. Harbiy diskurs rasmiy institutsional tildan foydalanganligi sababli, u standartlashtirilgan struktura va terminologiyaga ega. Sotsiolingvistik jihatdan bu quyidagicha namoyon bo'ladi: a) Shablon matnlar va doimiy iboralarning ustuvorligi; b) Harbiy terminlarning keng qo'llanishi (bo'linma, rejim, komanda, pozitsiya, operatsiya); v) Nutqning bahosiz va emotsional neytral shaklda ifodalanishi.

4) Madaniy va milliy xususiyatlar. Harbiy diskurs sotsiolingvistik tizimda madaniy va milliy omillarga bog'liq bo'ladi. Har bir davlat yoki jamiyatning harbiy til uslubi milliy o'ziga xoslikka ega: a) Muomala madaniyati (masalan, ingliz tilida "Comrade, Colonel!", o'zbek tilida "O'rtoq polkovnik!"); b) Harbiy qasamyod, tantanali nutq, marosimlar tili — har bir milliy kontekstda turlicha ifodalanadi; v) Qadriyatlar aks ettirilgan formulalar (Vatanga sadoqat, sharaf, jasorat kabi tushunchalar til orqali ifodalanadi).

5. Jamoaviylik va kommunikativ funksionallik. Harbiy til – bu jamoaviy harakatni muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan vosita. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, bu tilning quyidagi funksiyalarini ko'rsatadi: a) Koordinatsiya: topshiriqlar, holatni baholash, harakatlarni muvofiqlashtirish; b) Nazorat: hisobot, tahlil, tekshiruv; v) Rag'batlantirish va ruhiy ko'tarinkilikni saqlash (nutqlar, shiorlar, motivatsion gaplar).

Harbiy diskurs sotsiolingvistik jihatdan ko'p qatlamli va murakkab tizimdir. Unda til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy tuzilma, iyerarxiya, institutsional me'yorlar va madaniy qadriyatlarining ifodachisidir. Harbiy sohadagi muloqotning samaradorligi sotsiolingvistik belgilarni chuqur tushunish va ularga mos til vositalaridan foydalanishga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, harbiy buyruqlar tilshunoslikda o'ziga xos sintaktik, semantik, pragmatik va stilistik mezonlarga ega bo'lgan nutq birliklari bo'lib, ular harbiy diskursda nafaqat muloqot vositasi, balki boshqaruv, iyerarxik kuch munosabatlarini ifodalovchi va intizomni saqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Harbiy buyruqlarning sotsiolingvistik belgilari ularning jamiyatdagi kommunikativ tuzilmalarga qanday bog'liq ekanligini ochib beradi. Ushbu maqolada tahlil qilingan lingvistik va sotsiolingvistik omillar harbiy tilning ichki tuzilmasi va tashqi muloqotdagi rolini yoritishga xizmat qiladi. Harbiy buyruqlarni tizimli tahlil qilish, ularning nafaqat tilshunoslik, balki harbiy boshqaruv, psixologiya va axborot-kommunikatsiya sohalarida ham qanday ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu sababli, harbiy buyruqlarning chuqur tahlili institutsional muloqot jarayonlarini mukammal tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004.
2. Стрелковский Г.М. Язык армии: структура и функции. – Москва: Воениздат, 2005.
3. Юсупова Т.С. Институциональный дискурс: теория и практика. – Ташкент: Фан, 2017.

4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
5. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.